Qizil koʻylak

Onaginam menga oro berganini-bergan edi. Noyabrning xudo bergan kunlari maktabdan qaytsam, onam nuqul oshxonada kuymalanib yotgan boʻlardi. Tevarak-javonibida qizil duxoba qiyqimlari-yu andoza qogʻozlari qalashib yotardi. U bichish-tikishini huv almisoqdan qolgan tepki tikuv mashinasida qilardi. Tikuv mashinasini yorugʻlik tushsin uchun deraza tomonga oʻrnatgandi. Toki oʻrilgan yaydoq dalalar-u poliz ekinlaridan boʻshagan bogʻlarni, oʻtgan-ketganni koʻrib tursin-da. Koʻchamizdan ham oʻchakishganday onda-sonda odam qorasi koʻrinib qolardi.

Qizil duxoba bilan ishlash anchagina kuch talab qilardi, onam tanlagan libos bichimiyam chakanamas. Onamning oʻziniyam ja mohir chevarlardan deb boʻlmasdi. Yoʻqdan bor qilish uning joni-dili edi; lekin chevarlik umaman boshqa masala.

KOʻLAM

Dori oʻz manziliga yetguncha naq uchta avtobus alishtirishiga toʻgʻri keldi − biri Kinkardaynga, boshqasi Londonga eltadi, yana biri boʻlsa naq idoraga tashlab oʻtadigan shahar ulovi. U yakshanba kuni saharmardonlab toʻqqizda yoʻlga tushdi. Boyaqish avtobuslar qatnovini kuta-kuta yuz millar chamasi yoʻlni tushdan keying ikkigacha bosib oʻtdi. Bekatlarda, ulovda mixlanganday oʻtirib ketishga nolimasdi. Chunki uning ishi muttasil tik oyoqda yurishni talab qilardi-da.

U Comfort Inn mehmonxonasida oqsochlikda nonini topardi. U hammomni qirtishlab tozaladi, yotoq jildlarini alishtirib, gilamlarni changyutgichladi, oynalarni yogʻ tushsa yalagudek qilib artib qoʻydi. Bu ishi uning koʻngliga toza oʻtirardi − oʻylaridan oz boʻlsa-da forigʻ boʻlar, yumushlaridan tolganidan tunda osongina uyquga ketardi. Toʻgʻri baʼzida koʻnglini gʻash qiladigan holatlar ham boʻlib turardi. Hamkasblari tepa sochni tikka qiladigan safsatalarini sotishadi. Ularning yoshi Doridan ancha ulugʻroq boʻlib, har doim boshqa yogʻliroq ish topishing kerak deya qulogʻiga quyishardi. Hali bizlarga oʻxshab husning aynimagan boʻlsa, mundoq tuzukroq lavozimda ishlasang nima qilardi deya holi-joniga qoʻymasdi. Lekin Dorining ishidan koʻngli toʻq, bundan ortigʻI kerak emas unga. Iloji boricha odam zoti bilan hangomalashishdan oʻzini olib qochardi.

Hamkasblarining bari unga nima boʻlganini bilolmay dogʻda edi. Bilganlari ham lom-mim demasdi. Devorga ilib qoʻygan eri tushurgan suratda Dori uchta bolkaylari − qoʻllarida endigina dunyoga kelgan Dmitriy, ikki yoqida qizi Barbara bilan Sasha termulib turishibdi. Dorining tabiatan uzun toʻlqinli, qoʻngʻirrang sochlarini eri yoqtirardi. Koʻrinishidan uyatchan, yumshoq tabiat − ayni turmush oʻrtogʻI koʻnglidagidek.